



O'zbekiaston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Farg'ona viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi
Viloyat metodika markazi

Beshariq tumani
Xalq ta'limi bo'limi
Metodika kabineti

Mavzu: Inson huquq va erkinliklari
kafolati.

Z. Arslonova .
Beshariq tumanidagi
38-umumiy o'rta ta'lim
maktabining huquq
fani o'qituvchisi.

Beshariq shahri-2006 yil.

Muallif: Z.Arslonova.
Beshariq tumanidagi
38-umumiy o'rta talim
maktabning huquq fani
o'qituvchisi .

Taqrizchi: R.Xatamov
Beshariq tumani Xalq ta'limi
bo'limi Metodika kabineti
mudiri.

9-sinf konstitutsiyaviy huquq fanidan
1 soatlik dars ishlanmasi.

Qonun 1997 yil 26 apreldan qabul qilindi
Inson huquqlari bo'yicha MILLIY markaz 1996-yili tashkil topdi.
Mavzuni mustaxkamlash.

1. Inson huquqlari himoya qilovchi davlat organlariga nimalar kiradi.
2. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha yangi tashkilotlar

45-modda: Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizliklar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

O'zbekiston fuqarolarining teng huquqliligi quyidagi modda orqali qonun bilan kafolatlangan.

46-modda: Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir.

Davlatimizda inson huquqlarini himoya qiluvchi mexanizm mavjud. U nafaqat davlat organlari bilan balki kasaba uyushmalari, advokaturalar va huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar bilan ifoda etilgan. Bu mexanizm quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- Odil sudlovni amalga oshiruvchi sud organlari;
- Qonunlar aniq ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi hamda inson erkinliklari va huquqlarini himoya qiluvchi prokuratura organlari;
- Huquq targ'ibotni ta'minlash va fuqarolar huquqlarini muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlarni bajaruvchi ichki ishlar "vazirligi organlari;
- Fuqarolarga ularni huquqlari himoyasida yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatura;
- Huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar va kasaba uyushmalari; Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha yangi tashkilotlar vujudga keldi. U quyidagilardan iborat:
 1. Konstitutsiyaviy sud.
 2. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili. (Ombudsman).
 3. Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz.Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) lavozimi 1995 yil tashkil qilindi. «Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risidagi

Mavzu: *Inson huquq va erkinliklari kafolali.*

Konstitutsiya davlatning qiyofasi va obro'-e'tiborini belgilaydi. Mana shu qonun majmui orqali dunyo davlatning davlatligini, millatning millat ekanligini bilib oladi.

I.A.Karimov. Darsning borishi:

- Darsning talimiy maqsadi.
O'quvchilarga inson va huquq erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari haqida. Inson huquqlarini himoya qilish haqida.
- Darsning tarbiyaviy maqsadi:
O'quvchilarning huquqiy bilimni oshirish, ularni insonparvar, adolatparvar hamda kasbga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Darsning tipi: Aralash. **Darsning turi:**

Noan'anaviy.

Darsning usuli: «Seminar-munozara», «Aqliy hujum», «Guruhlar bilan ishlash», «Nuqtai-nazaring bo'lsa», «Sahna», «Boshqotirma».

Darsning jihozi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Prezident asarlari», «BMT ning inson huquqlari Dekloratsiyasi», «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya», 9-sinf «Konstitutsiyaviy huquq» darsligi, O'zbekiston va dunyoning siyosiy xaritasi, albom, test.

REJA:

1. Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari.
3. Inson huquqlarini himoya qilish mexanizmi.